

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

TOYIROVA SHOHISTA BOBOBEKOVNA

**TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARIDA EKOLOGIK TURIZMNI
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Toyirova Shohista Bobobekovna

Tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-
iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish..... 5

Тойирова Шоҳиста Бобобековна

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития
экологического туризма в горных и предгорных районах.....27

Toyirova Shohista Bobobekovna

Improving the organizational and economic mechanisms of ecological tourism
development in mountainous and foothill areas.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....58

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

TOYIROVA SHOHISTA BOBOBEKOVNA

**TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARIDA EKOLOGIK TURIZMNI
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt3166 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Usmanova Dilafuz Karshiyevna**
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Norchayev Asatullo Norbo'tayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qodirov Azizjon Anvarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 13-dekabr soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998-90) 213-89-07; faks: (998-66) 240-67-68; e-mail: dept@univ-silkroad.uz

Dissertatsiyasi bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (10 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (998-90) 213-89-07; faks: (998-66) 240-67-68; e-mail: dept@univ-silkroad.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «1» dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «1» dekabrda № raqamli 40-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizm xalqaro sayohatlar umumiy o‘shida barqaror rivojlantirish tendensiyasini namoyon etmoqda, bu esa tabiatga yo‘naltirilgan yo‘nalishlarga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda. Tog‘ va tog‘oldi hududlari bir vaqtning o‘zida muhim ekotizim xizmatlarini ta‘minlaydi hamda yuqori biologik xilma-xillik qiymatiga ega bo‘lib, ularni sayyohlar uchun tabiiy joziba markaziga aylantiradi. Butunjahon turizm tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, “tog‘ turizmining ulushi xalqaro keluvchilarning taxminan 16 foizini tashkil etadi, bu esa qariyb 375 million sayohatga teng bo‘lib, tog‘ hududlarining jahon turizm iqtisodiyotidagi ahamiyatini tasdiqlaydi”¹, shu bilan birga, “ekoturizmning global bozori 2025 yilda taxminan 296 milliard AQSh dollariga baholanib, 2032-yilga kelib 814 milliard dollargacha yetishi prognoz qilinmoqda (o‘rtacha yillik o‘sh sur‘ati $\approx 15,6$ foiz)”². Mazkur kontekstda, talabning kengayishi bilan bir qatorda, tabiiy muhitni muhofaza qilish bazasini kuchaytirish zarurati ortmoqda, bu esa turistik oqimlarni rejalashtirish va rekreatsion yuklamani boshqarish ehtiyojini ta‘kidlaydi. Shu bois, bu holat mahalliy hamjamiyatlar, biologik xilma-xillik va tog‘ hamda tog‘ oldi destinatsiyalarining iqlimiy barqarorligiga yo‘naltirilgan barqaror rivojlanish modellari uchun imkoniyat oynasini ochadi hamda mintaqaviy iqtisodiy o‘shni rag‘batlantirishda alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turizmni barqaror rivojlantirish maqsadida tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar asosan turistlar oqimining o‘shini tog‘ ekotizimlarining mo‘rt muvozanatini saqlash bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan bo‘lib, turizm rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, tog‘li destinatsiyalarni boshqarishda klasterli yondashuvni joriy etish, davlat-xususiy sheriklik modellari, differensial narx belgilash va ekotizim xizmatlari uchun to‘lov tizimini takomillashtirish, rekreatsion yuklamani raqamli monitoring qilish, hududiy zonalash (yadro-bufer-rekreatsiya) tamoyilini qo‘llash, “yashil” turizm standartlari, ekologik yo‘naltirilgan infratuzilmani (eko-yo‘laklar, eko-lodjlar, interpretatsiya markazlari) qo‘llab-quvvatlovchi soliq va subsidiya imtiyozlarini joriy etish, tog‘ jamoalarini jalb etgan holda mahalliy qo‘shilgan qiymat zanjirlarini rivojlantirish, integrallashgan mintaqaviy siyosatni amalga oshirish, idoralararo muvofiqlashtirish va ko‘rsatkichlar tizimini (carrying capacity, ecological footprint, community benefit index) yaratish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuvlar turistik oqimlarni boshqarish, tabiiy landshaftning degradatsiyasiga yo‘l qo‘ymaslik hamda iqtisodiy-matematik modellardan foydalangan holda istiqbolli ko‘rsatkichlarni prognozlash masalalarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmni jadal rivojlantirish, ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq ushbu yo‘nalishda

¹ <https://pre-webunwto.s3.eu-west-1.amazonaws.com/s3fs-public/2024-03/UNTourism>

² <https://www.fortunebusinessinsights.com/ecotourism-market>

mamlakatimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga turizm sohasiga qaratilgan maqsadli dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Asosiy maqsadimiz – inson va tabiat muvozanatiga asoslangan tizim yaratishdir”³, “shu talablardan kelib chiqib, xizmatlar taklif qilish, bu yerning tabiati va sharoitini chet ellarda keng targ‘ib etish kerak”⁴. Ushbu vazifalarning bajarilishi tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmni samarali rivojlantirish, turizm sohasinig ekologik talablarga javob beradigan modellarini ishlab chiqish, baholash usullarini takomillashtirish, ekologik turizm infratuzilmasini tashkil etish, ekologik standartlar bo‘yicha turizm va mehmonxona xizmatlarini diversifikatsiya qilish uchun xalqaro tajribalar asosida “Dendropark”lar tashkil qilish usullarini asoslash, davlat qo‘riqxonalari bufer zonalari, milliy tabiat bog‘lari va pitomniklar yerlaridan ijaraga berish tizimini yo‘lga qo‘yish, ekonometrik usullar orqali ekologik turizmni rivojlantirishning istiqbolli parametrlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁵.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘rganilayotgan muammoning ayrim jihatlarini o‘rganish bilan bog‘liq masalalar mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. Ekologik turizmning

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-yanvardagi nutqi. “O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi” / <https://president.uz/uz/lists/view/7799>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi nutqi. “Miraki xalqaro turizm markazi mehmonlarni chorlaydi” / <https://president.uz/oz/lists/view/8244>

⁵ <https://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

xususiyatlari, tabiati va rivojlanish tendensiyasi turizmning iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va tabiatga ta'siri P.Eagles, P.Nilson, J.Higham, F.Buffa, J. McLaughlin, D.Weaver va J.Corria, O. Zaxarova, S.Ajayev, V. Xrabovchenko, V. Drozdov, S. Shimova⁶ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Jahon ekologik turizmi sohasida kechayotgan jarayonlar haqidagi ma'lumotlar BMT, JST va Turizmni qo'mitasi nashrlarida keltirilgan. Ekologik turizmning rivojlanish holati va rivojlanish tendensiyalari davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlarida e'lon qilinadi.

Mamlakatimizda ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalariga bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshstayev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, B.X.To'raev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, A.T.Mirzayev, Ye.V.Golisheva, A.A.Qodirov, S.Sh.Xalilov⁷ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Ta'kidlash lozimki, tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish muammolari hali yetarlicha o'rganilmagan. Hozirgi kunda

⁶ Eagles P, Nilson P. Ecotourism bibliography. An annotated bibliography for researchers, planners and managers. Fifth edition. The international ecotourism society, 2001.- P.41 ; Higham J. Ecotourism: competing and conflicting schools of thought. Critical issues in ecotourism : understanding a complex tourism phenomenon. Chapter1, 2007; Buffa. F. Young tourists and sustainability, profiles, attitudes, and implications for destination strategies. ISSN 2071-1050. Ecotourism and Sustainability Strategy. Vol.7, 2015; McLaughlin J. Ecotourism assessment: applying the principles of ecotourism to paddle-based recreation in St.Lawrence islands national park and environs. Queen's University. Graduate program in school of environmental studies, 2011; Weaver D., Lawton L. Twenty years on: the state of contemporary ecotourism research. Tourism Management, 2007.- P.1168-1179; Coria J., Calfucura E. Ecotourism and the development of indigenous communities: the good, the bad, and the ugly. Ecological economics, 73:47-55, 2012. O. Zaxarova. Международный опыт развития экологического туризма на особо охраняемые природные территории. Агенство стратегических инициатив по продвижению новых проектов. 1999.-с138; С.Ажаев. Экологический туризм. Учебное пособие. Павлодар, Кереку. 2016.-с64; В.Храбовченко. Экологический туризм. Учебно-методическое пособие. М:Финансы и статистика. 2003.-с167; В.Дроздов. Основы экологического туризма. Букинист. 2005.-с158; С.Шимова. Устойчивый туризм. Учебно-методическое пособие. Минск. РИПО. 2014.-с86

⁷Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма // учебное пособие. – Т.: Фан ва технология, 2014. - 332 б., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. – O‘zbekiston milliy ensiklopediasida, 2006., Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.X., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish // Darslik. -T.: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2010. – 238 b., Eshstayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. // T: Fan, 2011. T. 1. № 1. 280 b., Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. // T.: Fan va texnologiya, 2016. T. 1. № 1. 184 b., Xamidov O.X. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. - 260 b., Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма // Ташкент: Фан, 2009. T. 1. № 1. С. 153., Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O‘zbekiston Respublikasi misolida) // iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -Samarqand, 2019. 68 b., Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2021. – 246-b., Ibragimov N.S. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo‘llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. 183 b., Matyakubov U.R. Orolbo‘yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo‘nalishlarini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. – 78 b., Mirzayev A.T. O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – T.:, 2021. 68 b., Гольшева Е.В. Совершенствование организации и механизма регулирования развития туризма в рыночных условиях // дис. ... канд. экон. наук. Ташкент, 2012. Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirishning uslubiy-metodologik asoslarini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil 22-iyun., Amonboyev M., Khalilov S. Barqaror turizm rivojlanishi // o‘quv qo‘llanma – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 96 b.

mamlakatimizda shu bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar yetarlicha emas. Ayni paytda, mavjud ilmiy ishlarda asosan ekologik turizmga oid masalalar chuqurroq o'rganilgan bo'lib, tog' va tog'oldi hududlarining iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlari yetarlicha tahlil qilinmagan. Shu sababli, turizmning keng qamrovli tamoyillarini o'rganish, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini baholash hamda sohaga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish zarurati mavjud.

Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori bo'lib, bu mavzuni alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlash zaruratini yuzaga keltiradi hamda uning dolzarbligini yanada oshiradi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot amalga oshirilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizm borasidagi dunyo olimlari tomonidan shu kunga qadar shakllantirilgan qarashlarni o'rganib chiqish;

tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishni baholashning uslubiy yondashuvlarini aniqlash;

tog' va tog'oldi hududlarida turistik majmuasini shakllantirishdagi asosiy jihatlarni tahlil qilish;

tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishda mavjud imkoniyatlarni o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish;

muhofaza qilinadigan hududlarda ekologik turizmni tashkil etish va uni rivojlantirish masalalari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish;

Urgut tumanining alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining ekoturizm salohiyati va tashkillashtirish qobiliyatini baholash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Urgut tumanining alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining ekoturizm salohiyati va tashkillashtirish qobiliyatini baholash;

tog' va tog'oldi hududlarida o'rta muddatli istiqbolda ekologik turizmni rivojlanishiga oid ilmiy asoslangan prognozlar ishlab chiqish;

Samarqand viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimiz, jumladan Samarqand viloyati turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada taqqoslash, tizimli tahlil, guruhlashtirish, induksiya-deduksiya, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekspert baholash, regression-korrelyatsion tahlil va ekonometrik modellashtirish va prognozlash, SWOT tahlili, AHP modeli, Latent class modeli, Mlogit modeli kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Tabiatga sayohat” ekoturizmni rivojlantirish milliy dasturini amalga oshirish maqsadida yangi turizm xizmatlarini (Planting Tour, Plogging Tour va boshqalar) hamda ekoaksiyalarni tashkil etish asosida hududning mavjud tabiiy resurslaridan kelib chiqib turistlar uchun so‘qmoqlar, selfi zona va piknik zonalar, manzarali tomosha qilish maydonchalari hamda hayvonlarni masofadan kuzatish imkonini beruvchi “Photo tour in the mountains” fototurlarni tashkil etish bo‘yicha asoslangan takliflar asoslangan;

mamlakatimizning olis hududlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, turizm yo‘nalishiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, ekstremal turizm xizmatlarini kengaytirish, zamonaviy infratuzilma obyektlarini barpo etish maqsadida tadbirkorlik subyektlarining tog‘li hududlarda ziplayn xizmatlari va kanatli park (taypark) ekstremal turizm majmuasini tashkil qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berish tartibi asosida tog‘li hududlarda umumiy masofasi 200 metrdan kam bo‘lmagan ziplayn ekstremal turizm majmuasi uchun 100 million so‘m, hamda 150 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan kanatli park (taypark) ekstremal turizm majmuasi uchun 80 million so‘m miqdorida bir martalik subsidiya ajratishning “The procedure for granting a subsidy” takomillashtirilgan usuli bo‘yicha takliflar dalillangan;

mamlakatimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish orqali tog‘li va chekka hududlardagi aholining bandligini ta‘minlash, ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida ekohududlarda turistlik klasterlarni tashkil etish uchun tadbirkorlik subyektlariga “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali 10 yil muddatga yer uchastkalari va davlat mulki obyektlarini ijaraga berish asosida tushgan mablag‘larning 50 foizi davlat qo‘riqxonalari bufer zonalari, milliy tabiat bog‘lari va pitomniklar yerlaridan doimiy foydalanuvchilarga, 10 foizi davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markaziga, 40 foizi ekologiya jamg‘armasiga taqsimlanish “Method of rent distribution” usuli bo‘yicha asoslangan takliflari asoslangan;

mamlakatimizda muhofaza qilinadigan hududlarning milliy tabiat bog‘larida xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish omillarining ta‘sirini hisobga olib, tog‘ va tog‘oldi hududlarning turistlik salohiyati va resurslardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblari asosida 2030- yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz parametrlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tog‘ va tog‘oldi hududlarida aholining ekologik turizm bo‘yicha bilim darajasini baholashning “qoniqarli (0-0,667)”, “yaxshi (0,668-0,810)” va “a‘lo (0,811-1)” darajali guruhlarga tabaqalashtirish hamda tizimli monitoringini

o‘tkazish asosida uzoq muddatli samarali rivojlanishini ta’minlovchi “Ekoturistik ta’lim markazlari”ni tashkil qilish taklifi asoslangan;

Urgut tumanidagi tashrif buyuriladigan hududlarida mahalliy va xorijiy turistlarni jalb qilishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni tasniflash asosida diversifikatsiyalashgan “Ulug‘vor Urgut tog‘lari” nomli kombi turistik mahsuloti asosida ekoturistik mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda asoslangan;

ekologik turizmni rivojlantirishga va mahalliy hamda xorijiy turistlarni yanada ko‘proq jalb qilishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish natijasida zarur jihatlar takomillashtirilgan;

ekologik turizmning boshqa turlarini ham hududlarda qo‘llash va hali sohada foydalanilmayotgan yangi resurslardan foydalanish orqali rivojlantirish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasining rasmiy ma’lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Turizm), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizm tutgan o‘rnini belgilash hamda yashil iqtisodiyot sharoitida turizmni samarali rivojlantirish xususiyatlarini aniqlash, bu jarayonni metododik asoslarini takomillashtirish va davlat qarorlarini qabul qilishda qo‘llash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari barqaror turizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va uslubiy asoslarni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmni samarali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish va sohaning jozibadorligini oshirish bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mamlakatimizning mavjud resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga tadbirkorlik sub’yektlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish orqali tog‘li va

chekka hududlardagi aholining bandligini ta'minlash, ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida ekohududlarda turistik klasterlarni tashkil etish uchun tadbirkorlik sub'yektlariga "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali 10 yil muddatga yer uchastkalari va davlat mulki obyektlarini ijaraga berish asosida tushgan mablag'larning 50 foizi davlat qo'riqxonalari bufer zonalari, milliy tabiat bog'lari va pitomniklar yerlaridan doimiy foydalanuvchilarga, 10 foizi Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markaziga, 40 foizi Ekologiya jamg'armasiga taqsimlanish "Method of rent distribution" usuli bo'yicha asoslangan takliflar 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-sonli "Ekologik turizm yo'nalishida faoliyati yo'lga qo'yiladigan istiqbolli turistik klaster loyihalar"ning "Manzilli ro'yxati"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktyabrdagi 03-10-17-11101-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida tog' va tog'oldi hududlarida turizm ob'yektlarini ijaraga berish asosida aholini ish bilan band qilish 1,2 marta oshirish imkoniyatlari dalillangan;

ichki turizmni rivojlantirish hisobira 40 millionta mahalliy sayyohlarning hududlarga safarlarini tashkil etish, qo'shimcha 378 ta turoperator faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturini amalga oshirish uchun har oyning ikkinchi haftasining shanba va yakshanba kunlari "Oila va jamoa bilan sayohatga chiqish kuni"ni targ'ib qilishda tog' va tog'oldi hududlarida ekologik turizmni rivojlantirish asosida turizm salohiyati yuqori bo'lgan 36 ta tuman (shahar) hududlarida manzarali daraxtlar va dorivor o'simliklardan (sakura, atirgul, lavanda, barbaris, qizil do'lana va boshqalar) iborat kamida 3-10 gektar yer maydonlarida "Dendropark"lar tashkil qilish bo'yicha asoslangan takliflar 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ'ibot ishlarini kengaytirish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktyabrdagi 03-10-17-11101-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotda qo'llanilishi mamlakatimizda hududiy va mintaqaviy ekoturizm resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshirib, tog' va tog'oldi hududlarda ekoturizmni rivojlantirishga, turistik maxsulotlar diversifikatsilashtirish asosida ichki va kirish turizmi oqimini 8 % ko'payishiga xizmat qilgan;

mamlakatimizning olis hududlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish, turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, ekstremal turizm xizmatlarini kengaytirish, zamonaviy infratuzilma obyektlarini barpo etish maqsadida tadbirkorlik sub'yektlarining tog'li hududlarda zipline xizmatlari va kanatli park (taypark) ekstremal turizm majmuasini tashkil qilish xarajatlarining bir qismini qoplab berish tartibi asosida tog'li hududlarda umumiy masofasi 200 metrdan kam bo'lmagan zipline ekstremal turizm majmuasi uchun 100 million so'm, hamda 150 kvadrat metrdan kam bo'lmagan kanatli park (taypark) ekstremal turizm majmuasi uchun 80 million so'm miqdorida bir martalik subsidiya ajratishning "The procedure for granting a subsidy" takomillashtirilgan usuli bo'yicha asoslangan takliflar 2025-yil 19-iyundagi 383-son "Tadbirkorlik sub'yektlarining tog'li va cho'l hududlarda zipline xizmatlari va kanatli park (taypark) ekstremal turizm majmuasini tashkil qilish xarajatlarining bir qismini

qoplab berish tartibi to'g'risida" vaqtinchalik "Nizom"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktyabrdagi 03-10-17-11101-son ma'lumotnomasi). Taklifning amalga oshirilishi natijasida Samarqand viloyati ekoturizm obyektlarida turistik xizmatlar hajmi 20%ga ortishiga imkon berdi;

mamlakatimizda muhofaza qilinadigan hududlarning milliy tabiat bog'larida xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish omillarining ta'sirini hisobga olib, tog' va tog'oldi hududlarning turistik salohiyati va resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining prognoz hisob-kitoblari asosida 2030-yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlarini qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2025-2030-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 28-oktyabrdagi 03-10-17-11101-son ma'lumotnomasi). Natijada, keyingi besh yil davr mobaynida Samarqand viloyatidagi ekoturistik manzillarga tashrif buyuradigan turistlar sonining 2 baravarga oshishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tog'li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlanib, unda "ekoturizm" tushunchasining nazariy asoslari va mintaqada ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asnosida dunyo olimlarining ekologik turizmning shakllanish jarayonlaridan boshlab shu kunga qadar keltirilgan ta'riflari taqdim etilgan hamda O'zbekistonda ekologik turizm yo'nalishini rivojlantirishning mexanizmlari tadqiq qilingan.

"Ekologik turizm" tushunchasiga retrospektiv tahlil asosida yondashilib quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etilgan. "Ekologik turizm-bu mahalliy xalqlar

o‘rtasida ekologik mas’uliyat tushunchasini targ‘ib qilish barobarida ularning moddiy manfaat ko‘rishini ta’minlovchi barqaror turizm shaklidir”(1-jadval).

Ilmiy ishning ushbu bobida xorijiy va milliy ilmiy adabiyotlardagi mavjud tajribaga asosan ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy tamoyillari, xususan, ekologik, ijtimoiy-madaniy yo‘nalishdagi salbiy oqibatlarni minimallashtirish, ekologik barqaror muhitni saqlab turish, ekologik ta’lim va tarbiya, mahalliy aholi tomonidan turistik faoliyatdan daromad olish va ularda tabiatni muhofaza qilishga undash, sayyohlar boradigan mintaqalar barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shish, iqtisodiy samaradorlik kabi tamoyillar hamda ularning o‘zaro farqli xususiyatlari yoritilgan.

1-jadval


Ekologik turizmni rivojlantirishning retrospektiv tahlili⁸

Davri	Ilmiy maktab vakillari	Ilmiy yondashuv	Ta’rifi	Xususiyatlari
Ekologik turizm paydo bo‘lishining ilk davrlaridagi qarashlar (1965-1999)	Hetzer, Jubenville va Usher, Laarman va Durst, Fennell, Eagles, Ziolkowski, Ekoturizm jamiyati, Wallace Wallace, Bramwell va Lane, Avstraliya turizm departamenti, Karwacki va Boyd, Kates va Clark	Tabiiy resurslarga asoslangan yondashuv	Ekologik turizm tabiatning asrab-avaylanishi va hududning va hudud atrofida yashaydigan aholiga daromad olib keluvchi strategiyalardan biri	Hududga bog‘lanishi; Tabiiy resurslarning mavjudligi
2000-2010-yillarda ekologik turizm haqidagi qarashlar	Wearing va Neil, Stem va boshqalar, Hawkins, Burns, Saatsakis va Milonakis, Fisher va Treg, Neth, Libosada, Gursoy va boshqalar	Barqaror turizmni rag‘batlantirishga asoslangan yondashuv	Iqtisodiy rivojlanish, kambag‘allikni kamaytirish va biologik xilmaxillikni saqlab qolishga yo‘naltirilgan strategiyalardan biri	Barqarorlik prinsipiga to‘liq amal qilinishi; Ijtimoiy-madaniy resurslardan foydalanishda barqarorlik talablarining bajarilishi
Keyingi o‘n yillikda ekologik turizm haqidagi qarashlar	Hamidov O.H., Norchayev A.N., Hossain Bhuiyan, Acquah, Brokaj, Cater, Lerdsuchatavanich va boshqalar, Wilson va boshqalar, Xaitboyev R., Lee va Jan, Vyasha Harilal, Rakatama va Pandit, Ardiati	Tabiiy muhit, o‘ziga xos madaniyat turlarini o‘rganish, hurmat qilish va bilim olishga asoslangan yondashuv	Tabiiy resurslardan tabiat qonuniga binoan foydalanish va mahalliy o‘ziga xos madaniyat namunalarini o‘rganishga asoslangan strategiyalardan biri	Mahalliy aholining va turistlarning bilim olishga bo‘lgan xoxishini qo‘llab-quvvatlash;

Yuqorida qayd etilgan muammolarni yechimi sifatida tadqiqot jarayonida zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida mintaqada ekologik turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ekoturizm sohasini rivojlantirish

⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan.


omillarini aniqlash, hududda kichik ekoturistik zonalar, ekoturizm klasterlari va boshqalarga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, ekoturizm sohasiga zamonaviy texnologiyalarni tadbiiq qilish, ekologik turizmni qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni amalga oshirishga qaratilgan Samarqand viloyatiga xos bo‘lgan ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy(1-rasm) va iqtisodiy mexanizmlari taklif etildi (2-rasm).



1-rasm. Tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmi⁹

Tadqiqot ishining “O‘zbekiston Respublikasi tog‘ va tog‘oldi hududlarida ekologik turizmning rivojlanish holati va samaradorligini oshirish tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ishimizning obykti hisoblangan Urgut tumanining tog‘li hududlarida ekoturizmni rivojlantirishning turizmni rivojlantirishning SWOT tahlili amalga oshirildi.

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2-rasm. Tog'li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi¹⁰

Tumanning ekoturistik imkoniyatlarini aniqlashda SWOT (kuchli tomon, zaif tomon, imkoniyatlar va tahdidlar) tahlili usulidan foydalanildi. Ushbu tahlil turi tumanning ichki (kuchli va zaif tomonlari) va tashqi (imkoniyatlar va tahdidlar) muhit holati haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga yordam berdi. Ekoturistik imkoniyatlarni aniqlashda AHP (analytic hierarchy process) modelidan foydalanildi. AHP modelining eng ahamiyatli jihatlaridan biri-uning natijasida hududda turistik resurslardan foydalanish imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lindi. Tahlil natijalari sohada faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxslardan olingan so'rovnoma asoslangan.

Tumanning o'ziga xos madaniyat ko'rinishlarining yaxshi saqlanganligi uning ustunlik tomoni bo'lib, ushbu omillardan ekologik turizmni rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin. Tumanning o'ziga xos madaniyat ko'rinishlari aholining turmush tarziga singib ketgan madaniyat ko'rinishlari bo'lib, ularning qadriyatlari va urf-odatlaridir. Mamlakatimizda hali jamiyatga asoslangan ekoturizm (community-based ecotourism) shakllanib ulgurmaganini hisobga oladigan bo'lsak, ushbu yo'nalishni ekologik turizmga yo'naltirish har tomonlama foydali bo'ladi. Tumanning 116 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida istiqomat qiluvchi aholining katta qismi tijoratchilik, kashtado'zlik, temirchilik, to'n tikish, sopol buyumlar ishlab chiqarish kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi. Bunday faoliyat turlari chet ellik mehmonlarda ham katta qiziqish uyg'otishi tabiiy.

Keyingi bosqichda 2023-yilning may va 2024-yilning iyun-iyul oylarida mahalliy aholidan (200 kishi) va mahalliy turistlardan (103 kishi) ijtimoiy

¹⁰ Muallif ishlanmasi.

so'rovnoma olindi va olingan so'rovnomalarda jami 303 kishi qatnashdi. Olingan ma'lumotlar natijalarini tahlil qilishda STATA17 dasturidan foydalanildi va natijalar quyidagicha shakllandi.

2-jadval

Urgut tumanida o'tkazilgan SWOT - tahlili omillarining umumiy ustunlik darajalari¹¹

SWOT guruhlari	Guruh ustuvorligi	SWOT guruhlari omillari	Guruh tarkibidagi omillar ustunligi
Kuchli tomon	0,365	Tabiiy va madaniy resurslarga boyligi	0,2860
		Ziyorat joylarining ko'pligi	0,1140
		Milliy bog'ning mavjudligi	0,0698
		O'ziga xos madaniyat ko'rinishlarining yaxshi saqlanganligi	0,3349
		Turizm sohasi faoliyatining yo'lga qo'yilganligi	0,1953
Zaif tomon	0,163	Ishsizlikning yuqoriligi	0,0808
		Axborot resurslarining yetishmasligi	0,1667
		Tashkilotlar hamkorligidagi kamchiliklar	0,3182
		Malakali kadrlarning yetishmasligi	0,1768
		Nosoz infratuzilma	0,2576
Imkoniyatlar	0,365	Mahalliy aholining moddiy daromad olishi	0,1716
		Milliy hunarmandchilik mahsulotlarining o'sishi	0,2666
		Chet ellik investorlarni jalb qilish	0,0460
		Tabiatni asrashda samarali yechim	0,3459
		Mahalliy aholining turmush darajasining yaxshilanishi	0,1217
Tahdidlar	0,106	Foydaning notekis taqsimlanishi	0,3060
		Flora va fauna holatining yanada yomonlashishi	0,1375
		Ish o'rinlarining vaqtinchalik ekanligi	0,0643
		Xizmatlar ko'lamining torligi	0,3459
		Hududda aholining zich joylashganligi	0,1463

Ekoturistik hududlarda ekoturizmni barqaror rivojlantirishda aholining ekoturizm to'g'risida bilimni baholashning “qoniqarli (0-0,667)”, “yaxshi (0,668-0,810)” va “a'lo (0,811-1)” me'zonlari ishlab chiqildi. Aholining ekoturizm sohasida bilimlarini ifodalovchi 8 ta o'zgaruvchi va har bir o'zgaruvchi kategoriyali sifat ko'rsatkichda ifodalandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Yashirin guruh (Latent class, gaussian) modelidan foydalanilgan holda aholining ekoturizm bilan bog'liq bilimlarini ifodalovchi o'zgaruvchilardan hosil bo'lgan guruhlar soni 3 tani tashkil etdi. Guruhlar soni optimalligini aniqlashda entropiya qo'llanildi. Yashirin guruh (Latent class, gaussian) modelidan foydalanilgan holda “Ekoturizm to'g'risida aholi bilimi”ni qoniqarli, yaxshi va a'lo bo'lgan, 3 guruhga ajratildi. Umumiy 200 nafar respondentning 38,1 foizi “qoniqarli” bilimga ega ekanligi aniqlandi.

3-jadval

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Yashirin guruh (*Lattent class, gaussian*) modeli uchun umumiy xususiyatni ifodalovchi o'zgaruvchilarni guruhlashda AIC va BIC mezonlar natijasi¹²

T/r	Ko'rsatkich	AIC	BIC	Entropiya
1.	Ekoturizm to'g'risida aholi bilimi	3843,469	3896,242	-
		378,34	3866,798	0,690
		3700,276	3812,419	0,722
		3701,636	3843,464	0,715

Urgut tumanida ekoturizm faoliyatini rivojlantirish qator omillar bilan bog'liq bo'lib, faoliyatni diversifikatsiya qilish yoki kengaytirilgan xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etishda ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash shular jumlasidandir. Hukumat tomonidan faoliyatni kengaytirish yoki turistlarga sifatli xizmat turlarini taklif etishda subsidiya yoki imtiyozli kreditlar ajratilishi, faoliyatdan keladigan daromadning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4-jadval

Urgut tumanida ekoturizmni rivojlantirishda turli omillar bilan bog'liqlik tahlili¹³

T/r	Ko'rsatkichlar	5-10 nafar	10-15 nafar	15-20 nafar	20-25 nafar
1.	Subsidiya ajratish:				
	- Pearson chi2	0,414	0,090*	0,027**	0,826
	- Kendall qiymat	0,0578	0,1200	0,1567	0,0156
2.	Imtiyozli kredit ajratish:				
	- Pearson chi2	0,733	0,632	0,019**	0,002***
	- Kendall qiymat	-0,0241	0,0339	0,0962	0,1183

4-jadval tahlil natijalariga ko'ra, Urgut tumanida 10-15 va 15-20 nafargacha bir martalik turistlar tashrif buyuriladigan hududlarda davlat tomonidan faoliyatni kengaytirish yoki xizmat sifatini oshirishga subsidiya ajratish mos ravishda 10($p < .1$) va 5 foiz($p < .05$)likda statistik muhim ahamiyatga egaligi tahlil natijalari ko'rsatmoqda. Ya'ni, davlat tomonidan subsidiya ajratilishi 12-15,6 foizga turistlar guruhini oshiradi. Shuningdek, imtiyozli kreditlarni ajratish 15-20 va 20-25 nafar bir martalik tashrif buyuradigan turistik hududlar uchun statistik mos ravishda 5 ($p < .05$) va 1 foiz ($p < .01$)likda statistik muhim ahamiyatga ega. 20-25 nafarlik bir martalik tashrif buyuruvchi turistlar qamrovi bo'yicha 11,8 foizga oshirish tahlil natijalari ko'rsatmoqda. Tumanda osma dor yo'llarining ishga tushirilishi nafaqat sayyohlar sonining oshishiga, balki mahalliy aholining sohaga jalb qilinishi va iqtisodiy faollikni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ushbu faoliyatning davlat tomonidan moliyalashtirilishi va moddiy yordam ajratilishi ekoturizmning tog'li hududlarda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalar tumanning tog'li hududlari infratuzilmasini yaxshilaydi, mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, mahalliy va xorijiy turistlar oqimini oshiradi va yashil iqtisodiyot tamoyillarini rag'batlantiradi (5-jadval). Davlat tomonidan

¹² So'rovnomalar natijalari asosida muallif hisob-kitobi.

¹³ Muallif ishlanamasi.


beriladigan subsidiyalarning ajratilish tamoyilini quyidagi mexanizm asosida amalga oshirish taklif etildi.

5-jadval

Tog‘li hududlarda ekoturizmni rivojlantirishda subsidiyalarni ajratish mexanizmi¹⁴

Belgilangan yo‘nalish	Subsidiya ko‘rinishi	Amaliyot
Infratuzilmaning yaratilishi	30%lik davlat subsidiyasi	Kanat yo‘li, ziplayn, texnik xizmatlar va xavfsizlik tizimi uchun
Mahalliy tijoratni qo‘llab-quvvatlash	25%lik imtiyozli kredit	Ovqatlanish punktlari, ijara nuqtalari, ekstremal sport markazlari
Trening va sertifikatlash	15%lik subsidiya	Mahalliy aholining yosh qatlami uchun xavfsizlik va xizmat ko‘rsatishni o‘zida jamlagan treninglar
Marketing va reklama xizmatlari	10%lik subsidiya	Turistik mahsulotlarni ichki hamda tashqi bozorga olib chiqish
Texnik xizmatlar va monitoring xizmatlari	20%lik subsidiya	Atrof-muhitning ziyon ko‘rmasligini ta‘minlash va tizimli xizmatni yo‘lga qo‘yish

Keyingi navbatda hududning ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida mahalliy aholi va mahalliy turistlardan so‘rovnoma olindi. Turizm maskanlarida turizm faoliyatlarini diversifikatsiyalash yoki ular o‘rtasida integratsiyani tashkil etish mahalliy yoki xorijiy turistlar tashrifini oshiradi. Bu borada Urgut tumanida tashkil etilgan turizm maskanlarida ekoturizmni rivojlantirish mahalliy turistlar tanloviga qay darajada ta‘sir etishi o‘rganildi.



3-rasm. Mahalliy turistlarda turizm maskanlari va ekoturizm o‘rtasida integratsiya tanlovi¹⁵

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

3-rasmga ko‘ra, Urgut tumani turizm maskanlarida “Hunarmandchilik namunalari namoyishida qatnashish” xizmatining tashkil etilishini mahalliy turistlarning 49,23 foizi foydalanish istagini bildirishgan. Urgut tumanida “Daraxt ekish” haftaligida qatnashish va hunarmandchilik namunalari namoyishida qatnashish kabi mashg‘ulotlar respondentlar uchun bevosita hududdagi ekoturizm jozibadorligi “tortuvchi omil (*pull factor*)” sifatida ko‘rishimiz mumkin. Tahlil natijalariga asoslanib aytish mumkinki, tumanning tog‘li hududlarida “Dendoparklar” ya’ni turli daraxt hamda o‘simliklar ekilgan maydonlarning tashkil etilishi bu yerning ekoturistik imkoniyatlarini yanada oshirishi mumkin. Bu kabi bog‘lar ayniqsa, tumanning Soyg‘o‘s, Omonqo‘ton va Tersak qishloqlarida tashkil etilish darajasi yuqori(6-jadval). Buning asosi quyidagi jadvalda berib o‘tildi.

6-jadval


Urgut tumanida “Dendropark”lar tashkil etish imkoniyati yuqori bo‘lgan qishloqlar¹⁶

	Manzil		
	Soyg‘o‘s	Omonqo‘ton	Tersak
Tabiiy resurslar	Boy o‘simlik dunyosi va nam mo‘tadil havо	Tog‘li o‘rmon zonasi, tabiiy bioxilma-xillik, sharsharalar, archalar	Tog‘lar, sharsharalar
Turistik imkoniyatlar	Urgut shahriga olib boruvchi asosiy yo‘lga yaqin joylashgan	“Omonqo‘ton” milliy tabiat bog‘i	Uy-mehmonxonalar, mahalliy mahsulotlar
Ekologik o‘ziga xoslik	Mahalliy mevali daraxtlar, dorivor o‘simliklar, Markaziy Osiyoga xos flora	Yovvoyi nok, bodom, archa va pista daraxtlar	Qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar, dorivor o‘simliklar

Soyg‘o‘s aholisi bog‘dorchilik bilan shug‘ullanadi va tumanda yashil hududlarni yanada kengaytirishda ularning yordami ahamiyatli. Mahalla tabiiy buloqlarga egaligi va tog‘oldi hududida joylashganligi daraxtlar ekish uchun ayni zaruriy muhitni yarata oladi. Omonqo‘ton mahallasining kichik daryolari va irmoqlari yashil maydonlarni sug‘orishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mahallada milliy tabiat bog‘ining mavjudligi o‘ziga xos o‘simlik dunyosini o‘rganishda va tadqiqotlar olib borish imkoniyatini beradi. Tersak mahallasining ekin ekiladigan va toshloq hududi qurg‘ochilikka moslashuvchan o‘simliklar uchun mos muhitni yaratadi. Bu kabi turistik imkoniyati yuqori hududlarda yashil maydonlarning kengaytirilishi ayniqsa shanba va yakshanba kunlari oilaviy sayohatlarni tashkil etish va mahalliy aholining vaqtini maroqli o‘tkazish barobarida tabiatni asrash va yosh avlodda atrof-muhitga nisbatan muhabbat uyg‘otish tuyg‘ularini shakllantiradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Tersak, Omonqo‘ton va Soyg‘o‘s mahallalarida yashil bog‘larning tashkil etilishi manzarali daraxtlar va dorivor o‘simliklarning asrab-avaylanishini va turistik mahsulot sifatida foydalanish imkoniyatini ta‘minlaydi.

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

